

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

9.2024

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2024

1) pedagogik jamoa, shu jumladan, yosh mutaxassis-o'qituvchilar bilan tashkil etiladigan kommunikativ faoliyat;

2) o'quvchilar jamoasi bilan tashkil etiladigan kommunikativ faoliyat;

3) ta'lim muassasasining ishchi-xodimlari (oshxona, elektr ta'minoti va qo'riqlash xizmati, shuningdek, ta'lim muassasasi binolari hamda hududining sanitariya holati uchun javobgar shaxslar) bilan tashkil etiladigan kommunikativ faoliyat;

4) ota-onalar bilan tashkil etiladigan kommunikativ faoliyat;

5) hamkorlar (homiy tashkilotlar, yakka shaxslar), rahbar organlar hamda ta'lim muassasi joylashgan hudud aholisi, jumladan, mahalla fuqarolar yig'ini faollari va rahbarlari bilan tashkil etiladigan kommunikativ faoliyat.

Texnikum, kollejlar va kasb-hunar maktablari rahbarlarining ta'lim jarayoni ishtirokchilari – o'qituvchilar, ishchi-xodimlar va o'quvchilar jamoalari, ota-onalar, homiy tashkilotlar, shuningdek, keng jamoatchilik bilan tashkil hamkorlikda olib boriladigan jarayondir.

Adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-5 jildlar. – Toshkent: O'zME, 2006-2008.

2. Psixologo-pedagogicheskiy slovar' /Dlya uchiteley i rukovoditeley obrazovatel'nykh uchrejdeniy. Avtor-sostavitel' V.A.Mijerikov. – Rostov-na-Donu: Feniks, 1998. – 540 s.

3. Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at. – Toshkent: TDPU, 1998. – 46 b.

4. Bodalev A.A. Psixologiya lichnosti. – M.: Pedagogika, 1988. – 280 s.

5. Pedagogika: Bol'shaya sovremennaya entsiklopediya//Sost. Ye.S.Rapatsevich. – Minsk: Sovr. Slovo, 2005. – 720 s.

Quranboyeva Muxarram Shavkat qizi (Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Matematika o'qitish metodikasi va geometriya" kafedrasida o'qituvchisi. quranboyevamuxarram@gmail.com)

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL ISHLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM O'RNI

Annotatsiya. Boshlang'ich ta'lim sohasida o'qituvchilarning mustaqil ishlash kompetensiyalari, o'quvchilarni ma'lum bir fan yoki mavzuga o'qitishda, o'zlarining unumli faoliyatlarini tashkil qilish, yangi va kreativ yondashuvlarni qo'llash, va o'zlarini o'quvchilar bilan birgalikda rivojlantirish va ta'lim jarayonini sifatli boshqarishga erishishga yo'naltirilgan muhim mavzudir. Ushbu maqola bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'lim o'rni, mustaqil ta'lim o'zi nima ekanligi, mustaqil ta'limga ko'pgina olimlar tomonidan berilgan ta'riflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, mustaqil ishlash, mustaqil ta'lim, zamonaviy ta'lim.

Аннотация. Компетенции педагогов по самостоятельной работе в сфере начального образования являются важной темой при обучении учащихся определенной дисциплине или предмету, направленной на организацию их продуктивной деятельности, применение новых и творческих подходов, а также на совместное развитие с учащимися и достижение качественного управления образовательным процессом. В данной статье представлена роль самостоятельного обучения в развитии компетенции самостоятельной работы будущих учителей начальных классов, что такое самостоятельное обучение, приведены определения самостоятельного обучения, данные большинством ученых.

Ключевые слова: начальное образование, самостоятельная работа, самостоятельное образование, современное образование.

Annotation. The competence of teachers to work independently in the field of primary education is an important topic when teaching students a certain discipline or subject, aimed at organizing their productive activities, applying new and creative approaches, as well as joint development with students

and achieving quality management of the educational process. This article presents the role of independent learning in the development of the competence of independent work of future primary school teachers, what is independent learning, and provides definitions of independent learning given by most scientists.

Key words: *primary education, independent work, independent education, modern education.*

Jahon miqyosida matematika o'qitish jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiradigan zamonaviy metodik ta'minotni yaratishga qaratilgan samarali tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Rossiya federatsiyasida innovatsion ta'lim dasturini amalga oshiruvchi oliy ta'lim muassasalarini tanlov asosida qo'llab-quvvatlash amaliyotini kengaytirish, bunda o'qitishning ilg'or metodlari va faoliyatidagi ilg'or tajribalarni maqsadli shakllantirish, aniqlash, sinovdan o'tkazish va keyinchalik ommalashtirish ko'zda tutmoqda. Shuningdek, individual ta'lim dasturlari, umumiy va qo'shimcha ta'lim dasturlari bo'yicha chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan ta'lim infratuzilmasini, ko'p tarmoqli litseylar tizimini, umumiy va qo'shimcha ta'limning integratsiyalashgan markazlarini rivojlantirishni qo'llab quvvatlaydi.

Hozirgi taraqqiyot davrida bir darsda o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlarini va mustaqil ravishda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tayyor bilimni berish emas, balki bilimlarni mustaqil egallashlariga ko'maklashishdan iborat. Buning uchun o'quvchilarning o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon etishlari va butun kuch-g'ayratlarini bilim olishga sarflashlari uchun imkon beradiga darajada ta'lim-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish zarur. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qitishda innovatsion texnologiyalar asosida o'zlashtirgan bilimlarni takomillashtirish, bilimlarni mustaqil o'rganish orqali ko'nikma, malaka va kompetensiya, ijodiy fikrlashni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirishda keng ko'lamli ishlar amalg'a oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish strategiyasining kontsepsiyasi, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, 2017 yil 30 iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5099-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli, 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda maqola muayyan darajada xizmat qiladi.[3]

Hozirgi kunda o'quvchilarning mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha turli o'quv fanlarini o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, maktablarda boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'lim topshiriqlari mazmuni fan mazmuniga mos holda, o'quvchilar mustaqil faoliyatini faol tashkil etishga, ularning oldiga qo'ygan didaktik maqsadlarni bajarishga yo'naltirilgan, belgilangan vaqt tushuniladi hamda o'quv reja va fan dasturi asosida mavzular uyga vazifa ko'rinishida taqsimlanadi.[4] Shuningdek, mustaqil ta'lim jarayoniga fanga oid ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirish, bilimlarini umimlashtirish, tizimlashtirish jarayoni yuzaga kelib, uni tashkil etishni samarali yo'lga qo'yish muayyan metodlardan foydalanishni talab etadi. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida mustaqil ta'limni quyidagi usullarda, ya'ni uyga berish bilan baholab va nazorat qilinmoqda.

Maktab o'quvchilariga uyga vazifa ko'rinishidagi mustaqil o'quv faoliyatini zamonaviy ta'limolish shakliga o'tkazish maqsadga muvofiq. P.X. Djurayev rahbarligida yozilgan "Pedagogik atamalar lug'ati"da "Mustaqil ta'lim" tushunchasi "Insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar

tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni"deb ta'rif berilgan bo'lsa, J.Xasanboyevning "Pedagogika fanidan izohli lug'at "ida esa "Mustaqil ta'lim"ga "Olingan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni mustahkamlash, qo'shimcha materiallarni o'rganish maqsadidagi o'quv shakli " sifatida qaraladi.

A. Mavlanov ta'rifi ko'ra mustaqil ta'lim - o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni sinfda hamda sinfdan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malaka kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat.

Mustaqil ta'limning yana bir tavsifini V.Okonning tadqiqot ishlarida uchratish mumkin: "Mustaqil ta'lim - o'qitishning shunday turiki, maqsad, mazmun, sharoit va vositalar subyektning o'ziga bog'liq". Bu yondashuvda subyekt faoliyati bilan bog'liq uch asosiy holatni o'qitish maqsadi, mazmuni va vositalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, mustaqil ta'lim - pedagogning kasbiy ishlab chiqarishini orttirish shakllaridan biri. Bu pedagogning o'z nazariy bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish uchun maqsadga yo'naltirilgan ishi bo'lib, pedagogika va psixologiya fanlarining zamonaviy talablari asosida yangi kasbiy ko'nikma malaka va kompetensiyalarni mustahkamlashtirish va qo'llashni taqozo etadi.

Mustaqil ish - bu shunday ishki, bevosita o'qituvchi ishtirokisiz bajariladigan, lekin, uni bajarishda, shu vaqt uchun maxsus taqdim etilgan, bunda o'quvchilar ongli ravishda o'z maqsadlarida erishish, o'z kuchlaridan foydalangan holda va u yoki bu shaklda aqliy yoki jismoniy harakatlar natijasini ifodalaydi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. O 'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 1997-yil 29-avgust. T.: «Adolat», 1997-yil.
2. O 'zbekiston Respublikasi Oliy va o 'rta maxsus ta'lim vazirligining «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar bilim ini baholashning reyting tizimi to'g'risida»gi buyrug'i, 2009-yil 30-sentyabr, 217-son.
3. O 'zbekiston Respublikasi Oliy va o 'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009-yil 14-avgustdagi 286-sonli «Ta'lim oluvchilar mustaqil ishlarini tashkil etish to'g'risida»gi buyrug'i.
4. Barakayev M., Shamshiyev A., G 'oyibnazarova G., O'rinova H., Halimov O' «Matematika o'qitish metodikasi» (mustaqil ta'lim) «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti Toshkent 2019.
5. Qurbanboyeva, M. S. (2023). MATEMATIKA TA'LIMIDA FANLARARO ALOQADORLIK DAN FOYDALANIB O 'QITISHNI TASHKIL ETISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(9 SPECIAL), 25-28.
6. Qurbanboyeva, M. S. (2022). O'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish. TDPU Ilmiy axborotlari, 1(1), 332-336.
7. Qurbanboyeva, M. (2022). Maktab algebra kursida o 'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish. Science and innovation, 1(B6), 177-179.
8. Qurbanboyeva, M. (2024). Pedagogical Features Of Developing Independent Work Competencies In Future Primary School Teachers. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(9), 14-19.

Xaitov Abdukosim Abdulakim o‘g‘li. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishning o‘ziga xos pedagogik shartlari.....	101
Safarqulova Nasiba Olimjonovna. Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchi nutqini o‘stirishning pedagogik va metodik usullari.....	104
Toshpulatov Akmal Xolmirzayevich. Adabiyot darslarida nafosat tarbiyasiga oid savol-topshiriqlar sifati va samadorligini oshirish.....	107
Asqarova Manzura Avazbekovna. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushunish kompetensiyalarni rivojlantirishda pisa xalqaro baholash dasturidan foydalanish.....	109
Rasulova Zulfiya Rasul qizi. O‘quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi.....	112
Atamuratov Dilshod. Mutafakkir ajdodlarimizning yoshlarda bag‘rikenglik va millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga oid pedagogik ta‘limotlari.....	114
Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna. Umumta‘lim maktablari adabiyot darslarida asar badiiyatini o‘qitishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	117
G‘aniyeva Gulhayo Islom qizi. Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda integratsiyalashgan mediata‘limning maqsad va vazifalari.....	119
Abdullaev Safibullo Xabibullaevich. Malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida o‘qituvchilarni ergonomik faoliyatga tayyorlash.....	121
Арипова Малика Ганишеровна. Роль иммерсивных технологий при формировании метакогнитивных способностей студентов педагогических ВУЗов.....	124
Таджибаева Рухшона Октамовна. Гендерные аспекты совершенствования познавательной – профессиональных компетенций у будущих учителей.....	127
Khatamov Ildar Urakovich. The Necessity of Speaking in Russian Language Among the Students.....	130
Nazarov Tohir Toshpulatovich. Students of the Faculty of Military Education Organizing Didactic Processes Shapes.....	133
Ataxojayev Toxirjon Maxmudjonovich. The Use of Uzbek Folk Proverbs and Saying in the Formation of the Patriotic Senses in Language Learners.....	137
Murtozaqulov Zafar Madat o‘g‘li. Matematik mantiq funksiyalarini minimallashtirish. joiz konyunksiyalar ...	139
Tilakova M.A. Malaka oshirish tizimida o‘qituvchilarning bolalarni inklyuziv ta‘limga tayyorligini rivojlantirishning nazariy asoslari	142
Ko‘bayev Akmal Sirlievich. Jamoani boshqaruvida rahbar shaxsining muvaffaqiyatli munosabati	145
Quranboyeva Muxarram Shavkat qizi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishda mustaqil ta‘lim o‘rni	148